

# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019-yil yanvar-may

## RAQAMLAR:


- 2019-yil yanvar-may oylarida bozor xizmatlari hajmi 2042,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 166,4 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1111,1 ming. so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushining oshishiga olib keladi.


2019-yil yanvar-may oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2042,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,6 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiyligi hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (27,3 %) tashkil etadi.

## 2019-yil yanvar-may oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan), %



**2019-yil yanvar-may oylarida ayrim xizmat turlari hajmining  
taqqoslanishi, mlrd. so'm**




Joriy yilning yanvar-may oylarida oldingi yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (109,0 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (53,4 mlrd. so'mga) va moliyaviy xizmatlar (136,3 mlrd. so'mga) hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**2019-yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>2042,6</b>	<b>115,6</b>
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	117,6	109,3
moliyaviy xizmatlar	336,3	166,4
transport xizmatlari	517,2	102,0
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	493,2	101,1
yashash va ovqatlanish xizmatlari	51,8	113,2
savdo xizmatlari	557,6	109,2
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	63,6	102,1
ta'lim sohasidagi xizmatlar	95,0	153,9
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	38,9	112,4
ijara xizmatlari	44,2	103,1
kompyuterlar va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	74,9	106,6
shaxsiy xizmatlar	65,0	100,0
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	20,3	104,2
boshqa xizmatlar	60,2	130,0


Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lif va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

**2019-yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'y'cha  
bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



2019-yil yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (166,4%), ta'lim sohasidagi xizmatlar (153,9 %), boshqa xizmatlar (130,0 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (113,2 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**2019 - yil yanvar - may oylarida  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi %.**




Hozirgi vaqtida savdo sohasi iste'molchilarning bozor talabini shakllantirish jarayonida faol ishtirokchi hisoblanadi. Bugungi kunda savdo xizmatlari mamlakat iqtisodiyotida ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiylajmi hajmining sezilarli qismini tashkil etadi. Respublikada zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda chakana savdo tarmoqlari faol rivojlanmoqda.

2019 - yil yanvar - may oylarida savdo xizmatlari hajmi 557,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiylajmi hajmidag iulushi 27,3 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 109,0 mlrd. so'mga oshdi.

### **2019 - yil yanvar - may oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %**



Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 72,8 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 20,1 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidi bo'yicha xizmatlar umumiylajmi savdo xizmatlari hajmida 7,1% ni egallaydi.

Moliya-bank tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan izchil chora-tadbirlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Zamonaviy bank xizmatlari ko'rsatish, jumladan "raqamli" banklar va chakana xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashgan bank bo'linmalarini tashkil etish uchun innovations bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko'rsatish, to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2019-yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 336,3 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 166,4%ni tashkil etdi.


### **2019 - yil yanvar - may oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi,%**



Moliyaviy xizmatlar umumi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar (89,7%) katta salmoqqa egadir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 78,4 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 21,6 % ga to'g'ri keladi.

### **2019 - yil yanvar - may oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining tarkibi,%**




2018 - yil yanvar - may oylari bilan taqqoslaganda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ulushining ko'payish omillaridan biri viloyatda turizm faoliyatni rivojlantirish hisoblanadi. Jahonga mashhur Xiva shahrining tarixiy yodgorliklari, zamonaviy shaharlar, O'zbekistonning betakror tabiatni, noyob milliy taomlari, shuningdek, xalqimizning betakror mehmondo'stligi sayohatchilarni o'ziga jalb qiladi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati esa 113,2 % ni tashkil etdi.

Ta'lif sohasidagi olib borilayotgan islohatlar avvalam bor insonlar ongini va fikrlash doirasini kengaytirishga hamda ma'naviyatini yuksaltirishga yordam bermoqda.

2019 - yil yanvar – may oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi 95,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 4,6 % ni tashkil etdi.


### Ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi va o'sish sur'atining taqqoslanishi



O'tgan yilning yanvar-may oylari bilan taqqoslaganda ta'lif sohasidagi xizmatlarning hajmi 40,8 mlrd. so'mga oshdi.

Xorazm viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmining har oyda o'sishi kuzatilmoqda. 2019-yil yanvar-may oylarida 1111,1 ming so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 213,0 ming so'mga oshdi va o'sish sur'atlari 113,6 % qayd etildi.

**2019 - yil yanvar-may oylarida viloyat bo'yicha  
aholi jon boshiga ko'rsatkichlar**



*Xorazm viloyati statistika boshqarmasi  
Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
Mas'ul: U.Bardiyev*